84
B.-83

Mohigul Bahodirova

Yuragimga qo‘nib qolgan qish

84
B-83

Mohigul Bahodirova

Yuragimga qo‘nib qolgan qish

she’rlar, mansuralar

17dl2

...RESPUBLIKASI
...TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1 EMLIAL!

Toshkent
«MUMTOZ SO‘Z»
2012

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT-RESURS MARKAZI

ООО «Чирчикская городская типография» Зак. 1096-1000

UDK: 821.512.133
KBK 84(5O‘)7

Sog‘inch — munavvar, pokiza bir tuyg‘u. Bu tuyg‘u insonga quvonch, ilhom bag‘ishlaydi, yurakni baxtiyor tuyg‘ular chulg‘aydi.

Mohigul Bahodirovaning she’rlarini o‘qir ekansiz, aziz o‘quvchi, sizning yuragingizga ham ana shunday yorug‘ tuyg‘ular oqib kiradi, degan umiddamiz.

Mas’ul muharrir va so‘zboshi muallifi:
Fayzi Shohismoil

84(5O‘)7
B 83
Bahodirova, Mohigul.
Sog‘inch (she’rlar, mansuralar) / Mohigul Bahodirova. Mas’ul muharrir va so‘zboshi muallifi Fayzi Shohismoil. — Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2012. — 40 b.

UDK: 821.512.133
KBK 84(5O‘)7

ISBN 978-9943-398-78-8

© Mohigul Bahodirova, 2012
© "MUMTOZ SO‘Z", 2012

Ushbu kitobimni men uchun dunyodagi eng aziz insonlarim, qadrli padari buzrukvorim hamda mo’tabar onajonimga bag‘ishlayman

SO‘ZBOSHI

Mohigul Bahodirovaning she’riy dunyosi o‘zgacha, o‘ziga xos. Yosh shoiraning qalbidan quyilib kelgan satrlarini o‘qir ekansiz, yurak tug‘yonlariga, dil iztiroblaiga, sevinch, sog‘inch va ko‘ngil mayllariga sherik bo‘lgingiz keladi. Uning nafis tuyg‘ularidan, ishqiy tarannumlaridan, hasrat to‘la dil so‘zlaridan qalbingiz junbushga keladi. Muhabbatni qumsaysiz!

She’rlari ham, mansuralari ham kishini o‘ylatadi, o‘kinchli, ammo shirin hislar og‘ushiga olib kiradi.

Fayzi Shohismoil

Ayt ey, onajon!

Men kimman?!
Ayt ey, onajon,
Nega bunday yaratding meni?
Nega bunday olam g'alayon?
Ko'rgim kelar sog'inib seni.

Men kimman?!
Ayt ey, onajon,
Yuragimni urib sindirdim.
Tug'ilib charchadim, o'laman qachon?
Baxtimni kimlarga bilmay indirdim!

Men kimman?!
Ayt ey, onajon,
Bulutga qizaloq qilib ber,
Chaqirar bag'riga, osmon bobojon,
Ketarman guldasta terib ber.

Men kimman?!
Ayt ey, onajon,
To'g'ri yo'lda qoqilib ketdim.
Qachon deysan meni bolajon,
Bilmam sira men o'zi netdim?

Men kimman?!
Ayt ey, onajon,
Ko'zlaringa qadalib qoldim.
Buncha titroq, buncha hayajon,
Mehr kutib ulg'ayib, toldim.

Men kimman?!
Ayt ey, onajon,
O'zi sening bolangmanmi men?!
Kimlar bo'ldi senga jonajon,
Ammo meni suyolmading sen!

Men kimman?!
Ayt ey, onajon,
Bir bor boshim silab qo'y yetar,
Begonasan menga onajon.
Meni endi hayot tark etar!

* * *

Menga ket deyishdi
Quvlashdi uni,
Asra ham deyishdi,
Yana o'zingni.
Menga o'l deyishdi.
O'ldirib uni,
Yana tilab menga,
Uzoq umrni.
Meni begonasan,
Yotsan deyishdi.
Unga deyishdi,
Sen bizdan emas!
So'nra qol deyishdi,
Menga yalinib,
Ammo u ketdi,
Qaytolmas bir joy,
Borolsa kelmas.
Dod soldim
Axiri -
Kimsizlar o'zi?!
Men axir odamman!
U menga vijdon!
Men endi qanday,
Yashay olaman?!
Vijdonim ketmoqda,
Oshmoqda davon.
Javobin kutaman?
Kim edi ular?
Nega men -
Vijdonim ketib ham
Yashayman hamon...

Malikaning ko'z yoshlari

Qadim o'tgan zamonda,
Bir malika bo'larmish.
Qaxr sochib har onda,
Ko'zi qonga to'larmish.

Shahzodalar kelishsa,
Ko'z qiriga ilmasmish.
Tunda esa bir o'zi,
Tong otguncha yig'larmish.

Odamlar deyisharkan:
Uni "Joxil" – malika,
"Yuraksiz" atar ekan,
Goho "Telba" malika.

Qani edi bilishsa,
Uning dardin-faryodin.
So'rashsa edi qani,
Yuragining tug'yonin!

Ancha yillardan buyon,
Malikaning tushiga.
Bir cho'pon yigit kirib,
Dod solarmish har kecha.

Malika ham yig'larmish,
Endi unga qo'shilib.
Qalbin biram tig'larmish,
Ko'ngli ketib eshilib.

Axiri bir kun cho‘pon,
Alamdan, o‘lib qopti.
Malika ham shu kundan,
Gul kabi so‘lib qopti!

U cho‘ponni sevarkan,
Muhabbatdan devona.
Qalbin g‘ashlik ezarkan,
Saroy ahli parvona.

Endi hech uxlolmaskan,
Tushlarida yo‘q cho‘pon.
Hali ham to‘xtashmaskan,
G’iybatdan ahli-ayon.

Oxir yig‘lab malika,
O‘zin suvga tashlabdi.
Qutilibdi dunyodan,
Dardlarini tashlabdi.

Ammo o‘zga bir yurtda,
Bir cho‘pon tushlarida.
Yig‘lab chiqarmish tunda,
Har kun bitta malika!

Monolog...

Meni ayblash har kim uchun bir sa’nat
Go‘yo ular farishta-yu, men bir gunohkor
Men so‘zlashim bilan bulutlar uyilarmish,
Gar ko‘zlarim ochsam butun borliq zulmat bo‘larmish...
Ox bu qanday qaboxat!
Men tug‘ildim
Ha, tug‘ildim
Ammo qani bir mehribonim
Rost so‘zlar bu bechora til
Ammo boshim baloda qolar!
Ayt, ey taqdir!
Men ham farishta bo‘lay,
Meni ham farishtalar olib ketishsin
Ko‘zlarimni ochsam oftob uyg‘onib,
So‘zlarimdan dunyo otsin qax-qaxa.
Men bir g‘arib, men bir noshud, men bir ojiza!
Na kulib his qilaman bu kulgularni,
Na yig‘lab yosh arta olaman,
Yo men farishta bo‘lolmaymanmi?!
Goh rahm qilsin menga bu falak
Deyishsin menga bir shirin tilak
Qani edi yolg‘izlikda o‘tmasam edi,
Mening bir mehribonim bo‘lsa,
Ortiq menga ne kerak.
Yig‘lamayman yo‘q aslo!
Mening o‘rnimga ham ular yig‘lashsin,
Men ketsam gar ortimdan
Ulkan yoshli daryo qolmasin.
Men shunchaki yashay olmadim
Va shunchaki o‘lmadim ham hech
Men ketgach ortimdan yig‘lab qolishdi
Barisi shaytonlar, men bir Farishta
Dod solishga esa ortda endi bo‘ldi kech!

Gulistonni yomon ko'raman

Toshkentdanman go'zal poytaxtdan,
Shoshning nafasidan ungan lolaman.
Barcha joyimizni sevaman ammo,
Gulistonni yomon ko'raman.

Keshlik biram do'stlarim bisyor,
Farg'onada doim bo'laman.
Borgim kelar Buxoro tomon,
Gulistonni yomon ko'raman.

Andijonga bir opam tushgan,
Biri tushgan Navoiyga ham.
Endi menga navbat yetibdi,
Gulistonni yomon ko'raman.

Kulishadi doim do'stlarim,
Qanday bo'lar bu sizning turmush.
Sen Toshkentda u Gulistonda,
Bo'lib qopsiz Otabek-Kumush.

Men aytaman Toshkentda joy ko'p,
Hamma sig'ar, bag'ri juda keng.
"Otabekjon" yoqtirmaydi xo'p,
Toshkentingni yomon ko'raman!

Yuragimga qo'nib qolgan qish

Meni balki bahor sog'inmas,
Balki osmonlarga hasman keraksiz.
Yelkamga ham hatto qush inmas,
Yuragimga qo'nib qolgan qish.

Chakkamdagi gul so'lib qoldi
Dilimni og'ritdi she'riy bir tashvish.
Ko'klamni sog'inib qalamim toldi,
Yuragimga qo'nib qolgan qish.

* * *

Menga, senga dunyo beshafqat,
Meni, seni sig'dirmas yer ham.
Kutib yasha mendayin shafqat,
Men yolg'izman, yolg'izsan sen ham.

Menga seni ketdi deyishdi,
Senga meni qaytmas dedilar.
Menga nega dunyo beshafqat?
Senga meni do'stmas dedilar.

Yig'la sen ham, yig'ladim men ham,
Ko'zlarimni yumgim keladi.
Seni ko'rib yashadim men ham,
Taqdir bizni tinmay eladi.

Alam bilan yashayman sendan,
Nega unday hokisorsan sen.
Nega unday yaxshisan mendan,
Hayotingni o'g'irlagan men.

Endi "Biz" deb aytolmayman,
Endi faqat "Men" yashayapman.
Ortimga hech qayta olmayman,
Sen ketding-u men yashayapman.

* * *

Tun o'lkadan ko'tarildi tinch,
Orziqib, shoshilib tog'lar domiga.
Uning ko'zlarida go'zal bir o'tinch,
Nigohi tushardi zar taroziga.

Vaqtning soati ham shu pallada tinch,
Ular kuylashardi borlig'ni tunga.
Quloqlarga ashor edi, kunlarga yupunch,
Demakki vaqt o'tardi, kun ulab kunga.

Va xattoki botir chashmalar,
Shivirlashdan charchamasdi hech.
Qadim uyqu qo'shig'i – alla!
Jaranglardi erta doim kech.

U e'tibor bermayin, ammo,
Xoridi, toldi u ham charchadi.
Unsiz tinglar moviy rang samo,
Essiz onlar o'tib ketardi.

Faqatgina ushbu so'z sirin,
Lolalar saqlardi doim ichida.
Ular aytmas xatto hech birin,
Samoning sirlari gullar ichida.

O‘tinch

Maylimi so‘nggi bor tikilsam sizga,
Ma’yus ko‘zingizga o‘rnashib olsam.
Taqdirning shafqati kelsami bizga,
Ijozat bersada siz bilan qolsam.

Maylimi so‘nggi bor tikilsam sizga,
Yurak dardlarimni uyalmay ochsam.
Bir bora qo‘lingiz, uzating menga,
So‘ng mayli roziman haykaldek qotsam.

Maylimi so‘nggi bor tikilsam sizga,
“Jonim” deb bir bora intiqib aytsam!
Raxmingiz kelibmi mendayin qizga,
Kulsangiz, baxtimdan uchib-la ketsam.

Mayli-deng bir bora tikilay sizga.

Tushlarimdan qo‘rqaman

Ortimdan quvadi tinmay Chingizxon,
Daryolarga birdan sakrab qochaman.
“O‘laman iltimos bir bora uyg‘on”,
Tushlarimdan shunday qo‘rqaman.

Yana tun cho‘kadi. Bisyor olomon,
Gulxanda lovillab yig‘lab yonaman.
Janna der iltimos ey qizcha uyg‘on,
Tushlarimdan shunday qo‘rqaman.

Ox, tunlarda sira yo‘q poyon,
Kanizakman shohdan qo‘rqaman.
Bir qiz yig‘lab uradi tug‘yon,
Tushlarimdan shunday qo‘rqaman.

Klyepatra berayapti jon,
Zaxarli ilonni quvlab boraman.
Chaqdi qo‘lim, tishlarida qon,
Tushlarimdan shunday qo‘rqaman.

Bu kecha ox, Dezdemonaman,
Otello keladi, endi o‘laman.
U ro‘molcha so‘raydi hayron,
Tushlarimdan shunday qo‘rqaman.

Oy chiqadi, quyosh botadi,
Ming baloga duchor bo‘laman.
Ko‘zim uyqi eltib tortadi,
Tushlarimdan shunday qo‘rqaman.

Yosh Bobur der uyg'oning Mohim,
Samarqandga yurish qilaman.
Jovdirayman aytolmay ohim,
Tushlarimdan shunday qo'rqaman.

Ko'zlarimni yumgim kelmaydi,
Nega faqat men tush ko'raman.
Bo'lgim kelmas bu safar Layli,
Tushlarimdan shunday qo'rqaman.

Dog'istonda kezibman sarson,
Avar tilda she'r o'qiyapman.
O'zim tilim chinqirar chunon,
Tushlarimdan shunday qo'rqaman.

"Yolvoraman, raxm qil biroz,
Mayli Kumush, mayliga Zaynab,
Otabekka chalib beray soz,
Tushlarimdan shunday qo'rqaman"

Vafodor kapalak

Bo'lib qolsaydim nimjon kapalak.
Faqat bir gulda men qo'nim topsaydim.
Hech ham uchmasaydim bo'lib jon halak,
Qanotlarim butkul gulga yozsaydim.

Bir kunlik umrimni vafoga berib,
So'ngra o'lsaydim qaniydi kulib.
Borliq so'zlasaydi mening haqimda,
Qalbimni otardim ularga yulib.

Hafa ham bo'lmasdim oz umrim uchun,
Eslashsa yetardi vafodorim deb.
Yuragim tubida yiltirar uchqun,
Behuda o'lmapman dunyoga kelib.

1712
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

Farishtamasman

Men- shunchaki farishtamasman.
Osmonlarga meni qaytgim kelmaydi.
Yoningizda mayli, gunohkor bo'lib,
Bir umr qololsam, ketgim kelmaydi.

Men- shunchaki farishtamasman.
Men bir telbanamo- farishta xolos.
Nozik qanotlarim yulishganlarga,
Gunohlarin kechib ayladim halos.

Men- shunchaki farishtamasman.
Men oshiq farishta, ayblang mayli,
Yorimning baxtiga tunlar yig'layman,
Hijronim yo'lida qoladi Layli.

Men- shunchaki farishtamasman.
Yolg'ondan kulaman, ichim yig'loqi,
Qalbim tilar mening borim, sevgilim,
Hatto o'z jonim tonadi o'zimdan gohi.

Men- shunchaki farishtamasman.
Gunohlarim bisyor, qalbim qorong'u,
Shundayin tonaman farishtalikdan,
O'lim ham tan olmas ichsam ham og'u.

Men- shunchaki farishtamasman.
Farishtalar dardni sezolmaydi hech,
Men shunchaki yolg'iz farishta...
Va yolg'iz qolganman barisiga kech.

Men- shunchaki farishtamasman.
Farishtalar hech yozolmaydi she'r,
Men yig'layman, ular, yig'lamaydi-ku!
Menga ham bir bora yolg'on hayot ber!

Yoshli xazonman!

Xazonlar to'kilar, har kuz oqshomi,
Qaysidir bargning umri tugaydi.
Yoriga termular daraxtdan turib,
Birga o'lish-chun izn so'raydi.

Ammo beshafqat bu - yaralgan qonun!
Sevganlar yetolmas aslo visolga.
Bir barg daraxtda - abadiy qolar,
Juftini uzatib o'zga makonga!

Yana kuz keladi, yana ma'yuslik,
Yerga to'kiladi yoshli xazonlar.
Unsiz yig'lashadi, shitirlar sustli,
Ko'klamni qumsashar barcha xazonlar.

Taqdirda! Aylanib qolibman bargga,
Shoxning uchlarini ushlab qolganman.
Daraxt tebranadi - "Yetdi navbating",
Men esa sevgimdan najot olganman.

Ammo taqdirdanmi ayro bo'lishlik,
Men qolib yorimni xazon etishdi.
Baribir nasibkan unga o'lishlik,
Tuproqlarda ko'rdim, toptap ketishdi!

Men sevgan inson

Jonim, yuragimning tig'siz qotili!
Ma'yus ko'zlarimga qarolmas zolim,
Titratib dilimni, kuydirgan olov!
Bir bor malol kelgan so'rashga holim.

Jonim, yuragimning tig'siz qotili!
O'zganing baxtini olvolgan yulg'ich.
Mening ko'zlarimga qadalgan xazon,
Va shaytondek ustimdan qax-qaxlab kulgich.

Jonim, yuragimning tig'siz qotili!
Bahorni kuzlarga burkagan hayxot.
Men kimman? Yo balki Sizni sog'inib,
Yashash-chun berilgan menga bu hayot...

Jonim, yuragimning tig'siz qotili!
Men uchun atalgan eng oliy jazo!
Va menga berilgan eng totli azob!
Sizsiz! Ha, siz o'sha hissiz bevafo!

Majnuntol'ga aylanib qolsam

Majnuntol ostida umrim o'tadi,
Har bahor faslida sizni kutaman.
Quyosh ham osmonda, oy ham botadi,
Baribir men layli sizni kutaman.

Sochlarim farqlolmam, tolning sochidan,
Balki tol ham meni sevib qolganmi?
Qayta berilsaydi umrim boshidan,
Tutardim qalbimni Majnun tolgami?

U sizdan bo'lardi anchayin dilvor,
Sahrolarga meni tashlab ketmasdi!
Alishmasdi meni, etmas edi hor,
Bizning vafomizga dunyo yetmasdi.

Ammo taqdir ekan asli yolg'izlik.
Hatto shu tolga ham nasib etmagan
Endi anglayapman bari tubsizlik!
Shuncha yillar afsus beiz bitmagan,

Majnuntolni egib qo'yibdi qarang!
Nahot men ham shunday mung'ayib qolsam,
O'ksinmayman faqat sochlarim silang,
Men ham bir kun tolga aylanib qolsam!

Bahorim

Bag'rimga yugirib kelding bahorim,
Navro'zing sog'indim, xush xabar bilan.
O'rik gullaring-la burkab nahorim,
Saharda uyg'otding gulchambar bilan!

Balki Boychechakka aylanib qolgum,
Balki Sumalakka otash- qalovman.
Sen kelding demakki, tug'ilgum qayta,
Yangi she'rlarda men yana olovman.

Qishlog'imda soyga qo'shilib oqdim.
Toshlarga urildim sen kelgan zahot,
Tunda yulduzlarga jilmayib boqdim,
Bunchalar go'zal sen birla hayot!

Ox, bo'lib qolsam edi sening bir qisming,
Senga ergashuvchi Qaldirg'och bo'lsam!
Yo arig'ing labida yalpizday unib,
Bahor kelganingda qayta tug'ilsam!

Shukurki, yurtimda yana sen borsan!

* * *

Yomg'irning ostida ikkimiz bir zum,
Qachonlardir kezgan izlarimiz bor.
Sizni axtarib men yo'llardan mahzun,
Topolmay sarsonman iforiz takror.

Meni jazolabsiz ko'klamda nechun,
Kuzgi hazonlarga almashib meni.
Qishning sovuqlari bardoshim uchun,
Muhayyo etdi-ku tilasam neni!

Ammo, boqing...
Xatto muhabbatim eritdi muzni,
Biroq yuragingiz hamon uyquda.
Xazonlar uyg'ondi men esa sizni,
Yillar turtkilayman, sevgim bexuda.

Ilk bahor bag'rida o'ssam loladek,
Meni o'psangiz gar qizarib ketsam,
Iymanib yashasam ilk shaloladek
Qalbim armonida murodga yetsam.

Hayotning so‘nggi bekati

Shoshilyapti bugun negadir poezd,
Uzoq manzil tomon olayapti yo‘l.
O‘tmish ketar birga insonlar bilan,
Ortda ko‘tarilar faqat bitta qo‘l!

Yana shoshilyapti u kungi poezd.
Mana qadam bosdi temir izlardan,
Bu safar ketmaydi o‘tmish na inson!
Ammo ko‘tarilar baribir bitta qo‘l.

Negadir bekatim bugun poezdsiz!
Nimaga ko‘rinmas poezd va izlar?!
Balki bu u emas o‘zga manzildir,
Lekin ortda turar yana o‘sha qo‘l.

Axiri angladim bu - mening qo‘lim,
Safarga nihoyat men oldim yo‘lim.

Biroq yana ortda turibdi bir qo‘l!

* * *

Yolvoraman ko‘zlaringiz boqmasin menga,
Alamli dardlarim uyg‘otmang zinhor.
Bunchalar bag‘ritosh, insonsiz nega,
Qalbimni tilkalab berarsiz ozor.

Borlig‘im tortadi sizdan talofat,
Aytgan har so‘zingiz og‘ritar dilim.
Tilayman o‘z umrim, o‘zim sizga baxt,
O‘zimda ortadi, dardim limo-lim.

Men sizni sevarman nafratim bilan,
Qalbimdan topaman cheksiz bir ummon.
Men sizni o‘ylayman hasratim bilan,
Yodimda muxrdek turasiz har on.

Nadomat mavjida suzmay qanchalar,
Baribir sizni men keladi ko‘rgim.
Og‘ritmang dilimni hissiz bunchalar,
Nafratga aylanib boryapti Sevgim!

* * *

Kechagi kun bugun o'tdi o'tmishimga,
Bu kun ketar albat yana o'tmishimga!
Ertan kelar kelajagim va lek...
Hayot turmas u ham ketar o'tmishimga.

* * *

Sarson-sargardonman so'ngsiz sahroda,
Tubsiz quduq ichra ketyapman cho'kib.
Razolat beminnat to'lgan dunyoda,
Men ham bir kun balki qolarman o'lib!

* * *

Bugun tongda o'lmoqchi bo'ldim!
Bo'ynim dov bermadi baland iplarga,
Qaytdim, kelajakni manzilin kutib,
Ko'zim tushdi ammo, siniq izlarga.

"Xiyonat qildim"

Necha kunki tushlarimga kirasiz,
Kechir deysiz xiyonat qildim!
Necha kunki meni bag'rim ezasiz,
Kechir deysiz hiyonat qildim!

Aqlim hayron, dilim vayron, qalbim qon,
Qo'lim titroq, ko'zim esa jiqqa yosh.
Lolman eshitilar so'zingiz biyron,
Kechir deysiz hiyonat qildim!

Tamom endi uxlolmayman hech qachon,
Hiyonatni kechirmayman hech qachon.
Tushlarimda ayon ko'rdim qabohat !
Endi-ruxsat...

O'ngimda ham qilavering hiyonat!

* * *

Taqdiri azal bitmishdir xudo,
Baxtsizlikni menga arg'umon etib.
Yig'layman bo'lganman baxtimdan judo,
Ohlarim bormaydi ollohga yetib.

Bir kun o'lganimda qabrimdan lola,
Unib chiqsalar gar bo'lmangiz hayron.
Tilsiz men kuyinib tortarman nola,
O'rnimga so'ylaydi lolalar biyron.

"Bunchalar mudxish bu, o- buyuk qismat,
Himmat ham etmading shu bechoraga,
Ko'klarga osilar, e'tibor qimmat.
Qabrdan o'zgasin topmas choraga"

Men uchun kuyinmang o- lolalarim,
Qadrimni topmayin, topdim sizlarni.
Balki men baxtsiz-u bisyor zorlarim,
Lek biling, eslashar albat bizlarni.

MANSURALAR

Hayolparast hikoyasi

Hayot bu qurbonlik demakdir, qachondir sen ham vijdoning oldida qurbonlik bajo etasan.

Qanchalar dahshat shu soniyalar. Ko'zingni yumasan-u, o'zingni bir zumga dunyodan uzilgandek, go'yo yong'oq daraxti ostida ko'zlaring bog'liq xolda tasavvur etasan.

Yong'oq daraxti. Uni ma'shum deb atash, uni o'zimning mulkim deya ko'rsatish, menga o'zi azaldan odat tusiga kirib qolgan.

Hali-hanuz ruhiyatimda ikki inson meni boshqarib keladi. Ularning hatto niyatlari nima ekanligidan ham habarim bor. Istaklari meni harob etish. Lekin bu ularning qo'llaridan keladi. Men esa ularga albatta ko'maklashib yuboraman.

Chunki, bu dunyoga hamma yig'lab kelgan bo'lsa, men kulib kelganman. Shunga qaramasdan bu dunyodan ba'zida noroziman. Aslida o'zimdan ham ayb o'tgan. Men haqimda negadir juda sirli gaplar ko'p. Kulgili voqealar ham. Hozir sizga birini so'zlab beraman.

U shunday yuz bergandi. Men ko'chada keta turib, bir toshbaqaga duch keldim, u meni ko'rib urra qochdi, uni tuta olmadim, uyga kelib otamga oqizmay-tomizmay barini so'zlay ketdim. Shunda otam bu voqea ularda ham qachonlardir sodir bo'lganini, o'zi bu, ya'ni toshbaqani tuta olmaslik oilaviy an'ana ekanligini ham qo'shib qo'ydi.

Men hafa bo'lmadim albatta, keyingi kuni yana o'sha ko'chadan yurdim, ammo toshbaqajon kelmadi. Shu-shu ularni sira ko'rmadim.

Sizga aytsam, menda o'zi doim shunday edi, g'alati. Xatto bir kuni singlim bilan juda g'aroyib ahvolga tushib qoldik.

Biz maymunjon tergani o'rmonga ketayotgan edik, singlim shunda mendan agar oldimizdan hozir och bo'ri chiqib qolsa nima qilamiz-a? deb so'radi. Men esa doimgidek maqtanib, seni o'zim himoya qilaman dedim. Shu kuni o'rmondan maymunjon tera olmadim, hayolimda faqat singlimni sovuq savoli tinimsiz aylanar edi.

Shu payt nima bo'ldi deng yonimizdan rostdan ham och bo'ri chiqib qoldi va menga qarata turib, - "Xoy sen ana-u ertaklardagi qizil shapkachasanmi? Seni necha zamonlardan buyon qidirayapman" – deb qoldi.

Men bu men emas, qizil shapkacha aslida yonimdagi singlim ekanligini va unda ikkita shirmoy non borligini ham qo'shib qo'ydim.

Men o'z singlimni sotgan edim. Sotqinlik kitoblarda yozilishi-cha, yaxshi odat emasdi, ammo bo'ri shirmoy nonimizni olgach ikkimizga ham raxm qilib qo'yib yubordi, singlim esa shundan buyon men bilan hech qayerga bormaydi.

Albatta, hikoyaning bosh qahramoni bunday bo'lishi sizga ma'qul emas, ammo hamma buyuk odamlar ham yoshligida toshbaqa quvlaganlar, sotqinlik qilganlar, faqat buni endi tan olishga uyalishadi, xolos.

Ba'zida boshimni qashlay turib, nega endi men rassom bo'lmadim ekan deb o'ylab qolaman.

Onam bo'lsa senda bunga qobilyat yo'q deydi, albatta bu ham meni sira ranjita olmaydi, men urinib ko'raman. Tabiiy men uncha muncha su'rat uchun vaqtini behudaga sarflaydiganlar toifasiga kirmayman, men Monna Lizani qayta yarataman, chunki uning qayerlaridir ayniqsa, keng yaltiragan peshonasi onamning peshonasiga juda o'xshab ketadi. Endi esa buyuk sa'nat asarimni boshlashim kerak, hikoyamni keyingi safar bafurja davom ettiraman.

Men va Atirgul voqeasi

Bu dunyoga adashib keldim. Yashayapmanu, o'z-o'zimdam kulgim keladi. Hayot ummonlari og'ushida betinim suzaverib charchadim. Juda zalvorli. Qish esa tinmay, mudom meni allalaydi. Ko'zlarimda bo'lsa, bahor yosh to'kadi. Bu tin olishni bilmas sog'inch meni bir kun uzoqlarga olib qochib ketmasa bo'ldi. Balki men unga yoqarman. Uning azoblari ham menga shirin tuyilyaptiku?! Ochig'ini aytdim, endi meni telba deb o'ylab qolasiz. Yo'g'e, deyishga shoshilamang. Kecha oqshom tush ko'ribman. Tushimda atirgul hadeb meni yoniga chaqiraverar ekan.

Bordim, nima o'zga choram bormidi? Keyin u meni yulib ol dedi. Men hayron. Bu gul buncha zolim bo'lmasa! O'z-o'ziga nahot raxmi kelmaydi. Unday desam bo'lmas, bunday desam ko'nmas axiri yulib oldim.

Yig'lab-yig'lab menga yana nima deydi deng — "Ey sen, meni nega yulding?!

Men yana hayron. Tavba. Bu men jinniman desam bu gul ham esini yeb qo'ygan ekan. Yig'layvergach axiri endi nima qilay deb so'radim. Nima deydi deng, meni qaytadan ekib qo'y deydi. Kulmang! Atirgul ekish unchalik kulgili emas axir. Jaxlim chiqdi, vajohatimdan qo'rqqan gul so'lib qoldi. Men gumrox uni so'nggi tilagini bajarmapmana! Yana afsus chekaman. Endi bu bog'ga ham boshqa kirmayman. Qaytib tush ham ko'rmayman.

Bilmasdan kulib qo'ydim

Bir kun bir momo yonimdan xo'rsinib o'tib ketdi. Ortidan nabirasi o'tdi u ham xo'rsinib. Kulib qo'ydim. Momo shunda ortiga qarab meni koyib berdi. Nega kuldim. Hozirgacha bilmayman. G'alati bo'lib yashash bunchalar g'alati bo'lmasa.

Qulog'imga bo'lsa har tong quyosh sim qoqadi. Shu kerakdek. "Seni olib qochib ketaman" — deydi u. Men yana kulaman. Men sen bilan osmonda nima ham qilardim? Axir nur sochishni bilmasam. Quyosh ko'zlarini bir yumib, deydi — "Sen oyni hayolini o'g'irlaysan. Men esa fursatdan foydalanib ko'proq nur sochib olaman".

— Quyoshjoney, Oy menga qararmidi? Ajoyib gapirasanda.

— Bo'lmasamchi!

— Uni rom etish qo'limdan kelmaydi tushun, axir. U har tun go'zal parilarga duch keladi. Men bo'lsa ular oldida juda ko'rimsizman.

— Yo'q sira unday emas. Menga ishon.

Shunday qilib axiri quyosh meni ko'ndirdi. Mana necha kundirki, oyni hayolini o'girlayman deb o'shandan buyon unga termulaman. Halovatim yo'qoldi. U bo'lsa menga hatto qiyo ham boqmaydi. O'tirib axiri yig'ladim. Alam qildi. Biroz vaqt o'tdi, neko'z bilan ko'ray-ki, Oy yonimda. Yana kulib yuboribman. Oy bo'lsa kulgimdan qo'rqib ketib qoldi. Shundan buyon o'ylayman, nega kulgandim? U nega ketib qoldi.

Onajon...

...goho shunday paytlar bo'ladiki, huddi hozirgidek so'zlarimi yarmidan ayta boshlayman. Bu so'zlarning illosi bor, ammo, ammo ular yuragimning bir burchagida qolib ketaveradi.

Insonligim o'zimga malol kelyapti. Kimdir mendan doim dili og'rigan, kimdir bo'lsa tinmay meni taqib etadi. Kim? Bilmayman.

Goh onamning allasini ayta boshlayman, unda sehr bor. Menga noma'lum sehr. Bolajonim, deydi u kuylar menga!

Hayot... Eh tutqich bermas, tuganmas, otash. Sen qandaysan o'zi? Balki hayot mendirman, balki momiq qo'zining bolasi hayot. Yana bilmadim seni goh quyoshga qiyoslab yuboraman. U ham senday ba'zida zolim, gohida esa baxt!

Men esa Nyutonning bir qonuniga o'xshayman. Go'yo olim uni menga qarab yaratgandek!

Ba'zan esa Nyutonni ham ko'rgim kelmay qoladi. Mantiqsiz hayot! Konfutsiy deydi — "Meni odamlar tushunmasa hafa bo'lmayman, aksincha men ularni tushunolmasam juda o'ksiyman". Onajon, nega meni Konfutsiydek qilib yaratmagansiz?

Kel, malika birga yig'laymiz

Daryolarga havasim keladi. Ularni hech nima to'xtashga majbur etolmaydi sira ham. Faqatgina yo'llar bo'lsa bo'lgani ularga.

Shoshib yurasan-u, ohirida esa faqatgina yolg'izlik qarshi oladi seni. Qanchalik g'alati hissiyot bu - chizolmam aslo siyratin.

Oqshomlari tushlarimda bir malika yig'lab chiqadi. Undan nega tinmay yig'laysan har tun desam, "Odamlar malikaning yuragi toshdan deyishadi, u hech kimni chin yurakdan sevolmaydi deb mazah qilishadi, biroq menda ham qalb bor shuning uchun yig'layman" - deydi u.

Qismatimiz bunchalar o'xshash bo'lmasa! Kel malika, birga yig'laymiz. Suvsiz qaqragan daryolarni to'ldira olamiz axir. Daryoning nomi esa "Malikaning ko'z yoshlari" bo'ladi. Bir irmoqni menga bersang bo'lgani. Yetadi ortiq so'ramayman. Faqat qaytib zinhor tushlarimga kirma.

Men garmsel shamoli

Olislarda yashab qolgan garmsel shamolidekman go'yo. Men na kerakman, na keraksiz! Borligim faqat issiqligu, yo'qligim xursandchilik olib keladi. Xolos. Nega faqat men shunday yaralganman. Meni tushinish uchun mahorat, ham sabr, ulkan bir sa'nat lozim. Men kimman? Men garmsel shamoli. O'zining borligidan mag'rurlanish hissi yo'q shamol!

Qachonlardir daraxtga aylangim kelardi. Endi bo'lsa inson bo'lgim keladi. Ularda jamiki narsalar bor: shamol, daraxt, sog'inch, muhabbat va erkinlik!

Men garmsel shamolida, anavi chaqir tikonakda nima bor? Nima? Hech narsa, hatto o'zimiz ham o'zimizga tegishli emasmiz! Achinaman shu!

Bu ikki yuzlamachi dunyoning nayranglaridan charchadim axir. Siz bilmaysiz - kimligini sezolmasdan yashashlik bu qanchalar dahshat!

Dilimni mudom bir azob kemiradi. Goh aytib yuboray deyman-u qani unga bardosh, kuch bo'lsa!

Sadoqatli do'stimni, o'limimni kutganim ma'qulroqmikin...

Onamning qiziman

Shom kirib yo'lda davom eta boshladim. Shunda yonimdan bo'g'irsoq chiqib qoldi. U nihoyatda ochiqqan ekan, kayfiyati ham biroz yo'q edi. Meni bilasiz onamga o'xshayman ko'nglim juda bo'sh. Unga ashula aytib bermoqchi bo'ldim, ammo u meni yeb qo'ydi. Shu kundan buyon birovga yaxshilik qilmayman.

Bo'g'irsoqni esa qaytib ko'rmadim. Bir kun bo'lsa yana o'sha yo'ldan o'tib kelayotib edim. Bu safar tulki o'tirgan ekan mung'ayib. Xorg'in ko'rindi ko'zimga, aytmabmidim onamga o'xshayman deb darhol unga ham qo'shiq kuylab berdim. U esa evaziga meni uyimgacha bo'g'irsoqlardan ehtiyot qilib kuzatib qo'ydi. Shundan buyon u bilan do'stman. Har holda u yaxshiligimni bildi. Men bo'lsa u yo'ldan o'tishni, kimgadir mehribonchilik qilishni hech kanda qilmayman.

MUNDARIJA

SO‘ZBOSHI.....3
Ayt ey, onajon!.....4
Malikaning ko‘z yoshlari.....7
Monolog.....9
Gulistonni yomon ko‘raman.....10
Yuragimga qo‘nib qolgan qish.....11
O‘tinch.....14
Tushlarimdan qo‘rqaman.....15
Vafodor kapalak.....17
Farishtamasman.....18
Yoshli xazonman!.....19
Men sevgan inson.....20
Majnuntolga aylanib qolsam.....21
Bahorim.....22
Hayotning so‘nggi bekati.....24
“Xiyonat qildim”.....27

MANSURALAR

Hayolparast hikoyasi.....30
Men va Atirgul voqeasi.....32
Bilmasdan kulib qo‘ydim.....33
Onajon.....34
Kel, malika birga yig‘laymiz.....35
Men garmsel shamoli.....36
Onamning qiziman.....37

Adabiy-badiiy nashr

Nashriyot muharriri: Fayzi Shohismoil
Musahhiha: Kamola Boltaboyeva
Texnik muharrir: Behzod Boltaboyev

«MUMTOZ SO‘Z»
mas’uliyati cheklangan jamiyati
nashriyoti

Nashriyot litsenziyasi AI № 103. 15.07.2008
Terishga berildi: 28.06.2012
Bosishga ruxsat etildi 28.09.2012
Qog‘oz bichimi 60x84 1/32. Ofset qog‘ozi
Times New Roman garniturasi. Hisob-nashriyot tobog‘i 2,0
Shartli bosma tobog‘i 2,5. Adadi 200
Bahosi kelishilgan narxda

Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 69.
E-mail: mumtoz_soz@mail.ru

Mohigul Bahodirova 1990-yil 15-yanvarda Toshkent viloyati, Bo‘ka tumanida ziyolilar oilasida tavallud topgan. 2008 yilda o‘rta maktabni a’lo baholar bilan tamomlagach, bir yil mobaynida Toshkent shahrida joylashgan Goethe-inistitutida tahsil olgan. 2009-yildan to shu kunga qadar, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Xorijiy filologiya fakultetida ta’lim olib kelmoqda. 2010-yilda DAADning “GIP” loyixasi asosida grant sohibasi bo‘lib, Germaniyaning Münster shahridagi Vilgelm nomli Vestfaliya universitetida tahsil olib qaytdi. 2012 yilda esa Alisher Navoiy nomidagi stipendiya sohibasi.

Shu kunga qadar Mohigulning ikkita tarjima kitobi va 20 yaqin maqolalari Respublika nashrlarida chop etilgan bo‘lib, ushbu she’riy to‘plam uning ilk badiiy ijodi hisoblanadi.

ISBN 978 9943-398-78-8

9 789943 398788